



Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi




# 2022- yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 722,0 mlrd so'mga** yetib, uning nominal hajmi **803,7 mlrd so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,5 %ni** tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-iyun oylarida)





# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>4 722,0</b>	<b>112,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	246,0	121,0
Moliyaviy xizmatlar	963,1	117,3
Transport xizmatlari	1 081,9	111,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1 009,1</i>	<i>108,2</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	115,2	115,7
Savdo xizmatlari	1 198,8	107,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	119,9	106,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	232,1	106,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	99,1	113,2
Ijara xizmatlari	95,1	117,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	194,3	111,4
Shaxsiy xizmatlar	166,9	108,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	76,3	108,9
Boshqa xizmatlar	133,3	139,3



# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi Nisbatan yuqori ko'rsatkich

### Nisbatan past ko'rsatkich





## Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **25,4 %**ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **2,0 %**ga yetgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiylajma **25,4 %**ni tashkil etgan. 2021-yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **1,9 %**.

2022- yil yanvar-iyun oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**17,3 %**), boshqa xizmatlar (**39,3 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**21,0 %**), ijara xizmatlari (**17,3 %**) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarida (**13,2 %**) qayd etildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-iyun oylarida ijara xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (**127,3 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**167,0 %**) o'sish kuzatilgan.

**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **25,4 %**ni tashkil etdi, bu esa **1 198,8 mlrd so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **995,8 mlrd so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **25,4 %ga** to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

2021- y.  
yanvar-iyun  
Xizmatlar hajmi  
**995,8 mlrd so'm**

O'sish sur'ati  
**108,7 %**

Ulushi  
**25,4 %**



2022- y.  
yanvar-iyun  
Xizmatlar hajmi  
**1 198,8 mlrd so'm**

O'sish sur'ati  
**107,4 %**

Ulushi  
**25,4 %**

2022- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **75,0 %**ini tashkil etdi.

Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosiga,  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda



Ulgurji savdo  
xizmatlari  
(avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari)



Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari chakana  
savdo bo'yicha  
xizmatlar



**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo ulushi **75,8 %**ga yetgan.

2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-iyun oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **963,1** mlrd so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **816,6** mrd so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **20,4** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **20,8** %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **146,5** mlrd so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **117,3** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **128,1** %ga yetgan.

## 2022- yil yanvar-iyun

## Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,2 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,6 %** darajada qayd etildi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-iyun oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **92,7 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,1 %**ga to'g'ri kelgan.



**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-iyun oylarida)

**2021- y.  
yanvar-iyun**

**199,4  
mlrd so'm**

**120,4 %**

**5,1 %**

**2022- y.  
yanvar-iyun**

**246,0  
mlrd so'm**

**121,0 %**

**5,2 %**



**2022- yil yanvar-iyun**



**Dastlabki ma'lumotlar**

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **95,1 %**ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2021- y. yanvar-iyun**

**2022- y. yanvar-iyun**



**Telekommunikatsiya xizmatlari**

**Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

**Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**Noshirlik xizmatlari**

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,6 %**ga yetgan.

**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**199,2  
mlrd so'm**

**2021- y.  
yanvar-  
iyun**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi**



**232,1  
mlrd so'm**

**2022- y.  
yanvar-  
iyun**

**145,9 %**

**O'sish sur'atlari, % da**

**106,2 %**

2022- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **232,1** mlrd so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,9** %ni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,2** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **199,2** mlrd so'mga teng bo'lgan. 2020- yilga nisbatan o'sish **145,9** % darajasida qayd etilgan.

2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd so'm

86,2

115,2

2021- y.  
yanvar-iyun

2022- y.  
yanvar-iyun



O'sish  
sur'ati, % da

110,2

115,7

2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **29,0** mlrd so'mga ortdi.

2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

79,7 %

2022- y. yanvar-iyun

20,3 %

17,5 %

82,5 %

2021- y. yanvar-iyun

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **79,7 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2021- yilda ularning ulushi **82,5 %**ni tashkil etgan.

**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi**  
 bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- y. yanvar-iyun**

**2022- y. yanvar-iyun**

**80,0  
mlrd so'm**

**Xizmatlar  
hajmi**

**99,1  
mlrd so'm**

**122,9 %**

**O'sish  
sur'ati**

**113,2 %**

**2,0 %**

**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

**2,1 %**




**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-iyun oylarida)



2022- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - **35,6 %** (2021- yilda **34,9 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichi Tuproqqa'l'a tumanida kuzatilgan – **2,4 %**.



# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>4 722,0</b>	<b>112,5</b>	<b>120,1</b>
<b>Urganch shahar</b>	<b>1 680,5</b>	<b>114,6</b>	<b>118,9</b>
<b>Xiva shahar</b>	<b>208,1</b>	<b>112,6</b>	<b>150,6</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Bog'ot</b>	<b>259,8</b>	<b>111,7</b>	<b>120,6</b>
<b>Gurlan</b>	<b>229,2</b>	<b>112,6</b>	<b>117,9</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>247,7</b>	<b>112,6</b>	<b>115,3</b>
<b>Urganch</b>	<b>357,2</b>	<b>107,4</b>	<b>118,6</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>347,8</b>	<b>107,3</b>	<b>114,1</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>114,6</b>	<b>114,5</b>	<b>128,9</b>
<b>Xonqa</b>	<b>330,3</b>	<b>113,4</b>	<b>118,7</b>
<b>Xiva</b>	<b>257,1</b>	<b>112,8</b>	<b>124,0</b>
<b>Shovot</b>	<b>268,1</b>	<b>113,1</b>	<b>120,1</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>231,5</b>	<b>111,4</b>	<b>120,2</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>190,1</b>	<b>112,5</b>	<b>125,6</b>

*\* Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

### Xizmatlar hajmi

2 446,1  
ming so'm

### Hajmning o'sishi

382,7 ming  
so'mga

110,7 %

### O'sish sur'ati



2022- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 446,1** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan o'sish sur'ati **110,7 %**ni tashkil etdi.

### Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 063,4** ming so'mni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 62-224-65-16

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi